Maxammatov Otabek Saydaaliyevich (Samarkand davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi (DSc), falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); E-mail: maxammatov-o@mail.ru)

XAVFSIZLIK FENOMENI: IJTIMOIY BORLIQ, QADRIYAT VA BARQARORLIKNING DIALEKTIK BIRLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xavfsizlik fenomenining ijtimoiy-falsafiy tabiati, uning ijtimoiy borliq, qadriyat va barqarorlik kategoriyalari bilan uzviy dialektik aloqadorligi tadqiq etiladi. Maqolada xavfsizlikning ontologik va aksiologik mazmuni ijtimoiy borliqning dinamik xususiyatlari bilan bog'liq holda tahlil qilinib, xavfsizlik va barqarorlik o'rtasidagi munosabatning o'zaro ta'sir va o'zaro taqozo tamoyillariga asoslanganligi asoslanadi. Shuningdek, xavfsizlikning qadriyatli mazmuni inson qadr-qimmati, erkinlik, adolat, ijtimoiy hamjihatlik va farovonlik kabi fundamental qadriyatlar bilan mushtaraklikda namoyon bo'lishi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *xavfsizlik fenomeni, ijtimoiy borliq, xavfsizlik ontologiyasi, aksiologiya, ijtimoiy barqarorlik, dialektika, ijtimoiy taraqqiyot, inson xavfsizligi, erkinlik, ijtimoiy manfaat, qadriyat, ijtimoiy munosabatlar, xavf va tahdid, ijtimoiy hamjihatlik.*

Maxammatov Otabek Saydaaliyevich (независимый исследователь (DSc) Самаркандского государственного педагогического института, доктор философии (PhD) по философским наукам; E-mail: maxammatov-o@mail.ru)

ФЕНОМЕН БЕЗОПАСНОСТИ: ДИАЛЕКТИЧЕСКОЕ ЕДИНСТВО СОЦИАЛЬНОГО БЫТИЯ, ЦЕННОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье исследуется социально-философская природа феномена безопасности, а также его неразрывная диалектическая взаимосвязь с категориями социального бытия, ценности и стабильности. Онтологическое и аксиологическое содержание безопасности анализируется во взаимосвязи с динамическими характеристиками социального бытия; обосновывается, что отношения между безопасностью и стабильностью основаны на принципах взаимного влияния и взаимообусловленности. Кроме того, раскрывается ценностное содержание безопасности, проявляющееся во взаимосвязи с такими фундаментальными ценностями, как человеческое достоинство, свобода, справедливость, социальная солидарность и благополучие.*

Ключевые слова: *феномен безопасности, социальное бытие, онтология безопасности, аксиология, социальная стабильность, диалектика, социальное развитие, безопасность человека, свобода, социальный интерес, ценность, социальные отношения, опасность и угроза, социальная солидарность.*

Maxammatov Otabek Saydaaliyevich (Independent Researcher (DSc), Samarkand State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy; E-mail: maxammatov-o@mail.ru)

THE PHENOMENON OF SECURITY: THE DIALECTICAL UNITY OF SOCIAL BEING, VALUE, AND STABILITY

Annotation. *This article examines the socio-philosophical nature of the phenomenon of security and its integral dialectical relationship with the categories of social being, value, and stability. The ontological and axiological dimensions of security are analyzed in relation to the dynamic characteristics of social being, and it is argued that the relationship between security and stability is based on the principles of mutual influence and interdependence. Furthermore, the value-based dimension of security is explored in connection with such fundamental values as human dignity, freedom, justice, social solidarity, and well-being.*

Keywords: *phenomenon of security, social being, ontology of security, axiology, social stability, dialectics, social development, human security, freedom, social interest, value, social relations, danger and threat, social solidarity.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy ijtimoiy borliqning murakkablashuvi va transformatsion jarayonlarning jadallashuvi sharoitida xavfsizlik masalasi inson va jamiyat mavjudligining fundamental shartlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarga ega bo'lishi, axborot oqimlarining keskin ortishi hamda turli ko'rinishdagi tahdidlarning transmilliy tus olishi xavfsizlik haqidagi an'anaviy tasavvurlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu ma'noda, xavfsizlikni faqat muayyan xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan institutsional yoki texnologik mexanizm sifatida talqin qilish uning ijtimoiy-falsafiy mazmunini to'liq ifodalab bera olmaydi. Tadqiqotchi J.Jurakulov qayd etganidek, "Hozirgi davrda jamiyat axborotlashuvining ma'naviy, axloqiy, mafkuraviy, g'oyaviy jihatlarining o'zaro aloqadorligini tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib bor-

moqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ma'naviy borliq subyektiv voqelik sifatida uchta ontologik darajaga ega, kechinmalar darajasi, anglash darajasi, o'zaro munosabat darajasi (ya'ni, hissiylik, intellekt, iroda) [1;13-b.].

Shu ma'noda, xavfsizlik, avvalo, insonning mavjudligi, ijtimoiy munosabatlarning uzluksizligi va jamiyat taraqqiyotining muayyan darajadagi barqarorligini ta'minlovchi fundamental shart sifatida qarali-shi lozim. Insonning o'z hayoti va faoliyatini xavfsiz muhitda tashkil etishi nafaqat jismoniy muhofazaga, balki uning huquq va erkinliklari, qadr-qimmati, ijtimoiy identikligi, e'tiqod va qarashlarining daxlsizligi bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli xavfsizlik fenomeni ijtimoiy borliqning turli qatlamlarini bir-lashtiruvchi, moddiy va ma'naviy jarayonlarni o'zaro bog'lovchi murakkab kategoriyaviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda xavfsizlik fenomenining ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berishda dialektik, tizimli, aksiologik, ontologik va fenomenologik yon-dashuvlar metodologik asos sifatida qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida analiz, sintez, qiyosiy tahlil, umum-lashtirish va konseptualizatsiya usullaridan foydalanilib, xavfsizlik fenomenining barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyot bilan dialektik birligi asoslandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xavfsizlik fenomenining nazariy ildizlari insoniyatning ijtimoiy tajribasi va falsafiy tafakkuri shakllangan dastlabki davrlarga borib taqaladi. Qadimgi dunyo muta-fakkirlarining inson mavjudligi, jamiyatning ichki tartibi, davlatning yaxlitligi va fuqarolarning farovon ha-yotini ta'minlash bilan bog'liq qarashlari xavfsizlik g'oyasining dastlabki konseptual asoslarini tashkil et-gan. Xususan, "Xavfsizlik haqidagi dastlabki g'oyalar qadimgi mutafakkirla –Platon, Aristotel, Gippokrat, Epikur asarlarida aks etgan. Platon "xavfsizlik" tushunchasini "adolat", "yaxshilik", "ehtiyotkorlik" kabi kategoriyalar bilan belgilaydi va "xavf" tushunchasi salbiy kategoriyalar: "adolatsizlik", "yovuzlik" bilan bog'liq. Shuningdek, u shaxsga tahdid soladigan xavflar oxir-oqibat jamiyat va davlatga tahdid soladi degan xulosaga kelgan. Aristotel o'z asarlarida davlat xavfsizligi masalalarini birinchi o'ringa qo'ygan, keyin esa faqat jamiyat va shaxs. Yana bir qadimgi faylasuf Epikur xavfsizlikni eng oliy ne'mat sifatida baholaydi: "Odamlardan xavfsiz yashash uchun har qanday vosita tabiiy ne'matlarni anglatadi" [2]. Bugugngi kundagi ilmiy ta'riflarga e'tibor qaratsak, "Xavfsizlik" –oyektga xavf va tahdid soluvchi omillarni bartaraf qilish imkoniyatining mavjudligi, bu tahdidlargaqarshi turuvchi mexanizmning mavjudligi demakdir"[3;422]

Xavfsizlik paradigmasi "mustahkam ijtimoiy immunitet"ni anglatadi, ya'ni, jamiyat va individning axborot oqimlari orqali tarqalayotgan epistemik, gnooseologik va aksiologik tahdidlar oldidagi barqarorli-gini ifodalaydi. Ispan olimi M.Castells ta'kidlaganidek, "axborot davrida jamiyatdagi asosiy jarayonlar pul, axborot, texnologiya va g'oyalar oqimi atrofida shakllanadi. Bu oqimlar turli joylarda bo'lgan odamlar va tashkilotlarni bir tarmoq orqali bog'lab qo'yadi" [4;442-b.]. Bunday sharoitda xavfsizlikning mohiyati - bu shunchaki axborot oqimini nazorat qilish emas, balki axborotning jamiyat tafakkuriga kirib borish darajasi va shaklini aniqlash, uning ma'naviy madaniyat bilan uyg'unligini ta'minlashdir. Shu bois xavfsizlikning ijtimoiy-falsafiy talqini jamiyatda "axborot etikasi", "axborot suvereniteti", "axborot adolatparvarligi" kabi yangi konseptual tushunchalarni shakllantiradi.

Xavfsizlik paradigmasining epistemologik talqini esa axborot haqiqatining mohiyatiga aloqador. Postmodernistik falsafa vakillari, xususan, J.Bodriyyar, M.Kastels, E.Toffler tomonidan ilgari surilgan "si-mulakrlar" va "hiperreal" konsepsiyalari axborot haqiqatining o'rnini ko'rinishlar egallaganligini ko'rsata-di. Shu fikrlar o'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham rivojlantirildi. Sh.B.Tursunova quyidagicha yozadi: "Axborot xavfsizligi siyosati, birinchi navbatda, korxonada axborot xavfsizligini ta'minlashning maqsad va vazifalarini faoliyatga singdirish uchun zarurdir. Faoliyat yuritayotgan har bir xodim shuni tushunishi kerakki, xavfsizlik xodimi nafaqat ma'lumotlar chiqib ketishini tekshiruvchi, balki kompaniya xatarlarini minimallashtirish va shu sababli kompaniya rentabelligini oshirishda yordamlashuvchidir" [5; 295-b.]. Shu nuqtayi nazardan, axborot xavfsizligi paradigmasi g'oya, tafakkur va dunyoqarashlar maydo-nidagi muvozanatni ta'minlovchi gibrid platforma sifatida shakllanmoqda. Bu gibridlik esa ijtimoiy-falsa-fiy ongda yangi mezonlarni: raqamli etikani, ong mustaqilligini, informatsion immunitetni shakllantirish-ni taqozo qiladi. N.Kodirov ta'kidlaganidek: "Ma'naviy tajovuz shakllarining aksariyati informatsion xuruj va uydirmalarni tarqatish orqali yuz bermoqda. Bugungi kunda tobora kuchayib borayotgan bunday xatar-larga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomon-lama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin" [6;655-b.].

Ijtimoiy-falsafiy yondashuvga ko'ra, xavfsizlik paradigmasi ijtimoiy ongda mavjud bo'lgan kutish-lar, qo'rquvlar va identitetlar orqali shakllanadi. Shu bois bu tushuncha konstruktivistik yondashuv bilan

ham uyg‘unlashadi. Ya’ni, “Xavfsizlikni ma’naviyat nuqtayi nazaridan tahlil qilish, uning olam bir butunligi, yaxlitligining tayanchi ekanini e’tirof etishga olib keladi. Xavfsizlik insonning, moddiy-ma’naviy imkoniyatlarini, bilimi, tafakkurini ro‘yobga chiqarish imkoniyatidir” [7;633-b.].

Axborotlashgan jamiyatda xavfsizlik paradigmasining ijtimoiy-falsafiy talqini zamonaviy kommunikativ muhitning transformatsion xarakteri va axborot oqimlari ustidan hukmronlikning insoniyat ontologyasi va madaniy tafakkuriga ko‘rsatgan chuqur ta’siri bilan belgilanadi. Bugungi raqamli realilik sharoitida xavfsizlik nafaqat tashqi tahdidlar yoki harbiy xavf-xatarlarga qarshi kurash doirasida, balki axborot oqimining semantik sifati, epistemik aniqligi va ijtimoiy ongda barqaror identitetlar va haqiqat modellari yaratish jarayonida ham asosiy mezon sifatida ko‘riladi. Professor Lalixon Muhamedjonovaning nazariy yondashuvi bugungi xavfsizlik paradigmasi uchun dolzarbdir: u shunday yozadi: “Raqamli jamiyatda yolg‘on ma’lumotlar va feyk yangiliklarning tarqalishi og‘riqli muammolardan biri hisoblanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan noto‘g‘ri ma’lumotlar jamiyatda xato tushunchalar, nafrat, ziddiyat va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bunday ma’lumotlarning keng tarqalishi esa fuqarolarning ishonchini kamaytirib, axborot manbalarining ishonchliligini shubha ostiga qo‘yadi” [8]. Bu fikrni axborotlashgan jamiyat sharoitida talqin qilsak, xavfsizlik bu axborotli mavjudlikning estetik, yetik va kognitiv muvozanatida saqlanishidir.

Xulosa (Conclusion). Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, axborotlashgan jamiyat sharoitida xavfsizlikni ijtimoiy-falsafiy anglash uni faqat texnik himoya mexanizmlari majmui sifatida emas, balki insonning raqamli makondagi erkin mavjudligi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy-identifikatsion yaxlitligi va kommunikativ faoliyatining barqarorligini ta’minlovchi ko‘pqatlamli ijtimoiy fenomen sifatida talqin etishni taqozo qiladi. Mazkur yondashuvning mohiyati texnologik himoya choralarinigina takomillashtirishda emas, balki axborotni idrok etish, baholash va undan foydalanish jarayonlarida shaxsning epistemik avtonomiyasi va ongli tanlov qobiliyatini mustahkamlash bilan belgilanadi.

Shu nuqtayi nazardan, axborot xavfsizligi jamiyatda bilim, axborot va qadriyatlarning shakllanishi hamda uzatilishi ustidan mas’uliyatli ijtimoiy nazoratni ta’minlash bilan birga, insonning axborot makonidagi subyektivligini himoya qiluvchi muhim aksiologik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli kommunikatsiyalar jadallashgan sharoitda axborot oqimlarining ko‘payishi va mazmuniy jihatdan murakkablashuvi shaxsning haqiqatni anglash mezonlari, ijtimoiy ishonch va qadriyatlarga munosabatini ham qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Demak, xavfsizlikning zamonaviy paradigmasi texnologik barqarorlikni insonparvarlik, intellektual mustaqillik, axborot mas’uliyati va ijtimoiy ishonch tamoyillari bilan uyg‘unlashtiruvchi integrativ konsepsiya sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Jurakulov J.K. Axborotlashgan jamiyatda inson ma’naviy borlig‘ining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa doktori (PhD) disser. avtoref., Toshkent, 2023, 48-bet.

(2). Зиатдинов Д.Ф. Теоретические подходы к проблемам безопасности в международных отношениях: концепция безопасности человека. Мировая политика. Москва, 2020, №4, с. 32–52. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=33703

(3). Nurullayev H.U. “Xavfsizlik – ijtimoiy-ma’naviy tahlil. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar mavzusidagi” respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi. Vol. 1, № 7 (2025), 421–426-betlar.

(4). Castells M. The Rise of the Network Society, 2nd Edition, with a New Preface. Wiley-Blackwell, 2010, 656 pp.

(5). Tursunova Sh.B. Raqamlashtirish sharoitida axborotlarning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri. “Innovatsiya va taraqqiyot”, ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal, Urganch, 2026, vol. 4, №4, p. 294-8, https:// adabiyot xazinasi.com/index.php/inno/article/view/1242

(6). Kodirov N.M. Yoshlar ma’naviyatga qarshi qaratilgan axboriy tahdidlarga qarshi kurashning zamonaviy usullari va vositalari (xorijiy va milliy tajriba). “Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”, Namangan, 2024, maxsus son, 652–655-betlar.

Gadoyeva Lobar Ergashevna (Buxoro Tibbiyot instituti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); lobar.gadoyeva@oxu.uz)

SOG‘LOM TURMUSH TARZINING ETNOSOTSIAL VA ANTROPOPSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyotida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishning etnosotsial va antropopsixologik omillari ijtimoiy-falsafiy hamda fanlararo yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Tadqiqotda milliy an’analar, etnomadaniy qadriyatlar va turmush tarziga oid tarixiy-sotsial taj-*